

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **6969,9** mlrd.so'mni, o'sish **3,4 %**ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati – **103,3%** ni tashkil etdi
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi -**19,8 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida respublika korxonalaridan 6969,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining -1,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 20,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning -12,4 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning – 60,9 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar- oktyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



89,0%

- Qayta ishlash sanoati
- (o'sish sur'ati 101,5%)



5,8%

- Elektr gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- (o'sish sur'ati 112,4 %)



3,8%

- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- (o'sish sur'ati 120,4 %)



1,4%

- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish (o'sish sur'ati 160,9 %)

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 262,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 % ni tashkil etdi.

Tog'- kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan -29,2% ga, gaz kondensati – 11,6 % ga , tabiiy gaz – 9,7% ga va qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid (osh tuzidan tashqari)-5,5 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

Yanvar - oktyabr oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Ohoktosh, t	151722,0	117387,2	129,2
Gaz kondensati, ming t.	147,90	132,49	111,6
Tabiiy gaz, mln.kub.m	5145,54	4690,87	109,7
Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid (osh tuzidan tashqari)	94065,0	89203,2	105,5

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6200,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 89,0 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan kislorod ishlab chiqarish -84,4% ga, tozalangan guruch – 2,5 martaga, aroq -10,9% ga, paxtadan iyigirilgan ip – 15,2% ga, karbonat dinatriya-6,5% ga, yumshoq bug'doy uni-2,5% ga oshganligini va paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan), bug'doy noni, makaron mahsuloti

ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

***Yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik
sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Paxta tolasi, t	39342	50418	78,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t	8276,2	11518,2	71,9
Tozalangan guruch, t	3772,0	1527,4	247,0
Yumshoq bug'doy uni, t	64389,9	62825,9	102,5
Aroq, m.l. 100% spirt	3480,9	3139,7	110,9
Bug'doy noni, t	2105,1	2873,2	75,6
Makaron mahsuloti, t	2455,86	3740,70	65,7
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, t	33095,2	32727,7	101,1
Tsement.beton yoki suniy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va binolar va inshootlar uchun boshqa buyimlar,t	500,0	297,9	167,8
Yul qoplamalari uchun asfaltli aralashmalar, t	22708,0	45000,0	50,5
Paxtadan iygirilgan ip, t	3397,4	2948,6	115,2
Kislorod, ming.m3	9,2	5,0	184,4
Karbonat dinatriya, ming.t.	154,69	145,31	106,5
Polietilen, t.	293587,07	311042,92	94,4
Polipropilen, t.	77242,3	77931,4	99,1

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 403,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar- oktyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida boshqa issiqlik energiyasini ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,0 % ga va boshqa usullar bilan ishlab chiqarish elektr energiya 3,1 % ga kamayishi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 103,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4% ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 2,0 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 19,3% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 45,7% ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab- quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1267,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 3,3 %, ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 18,2 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish




2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 35,4% dan 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida 36,9% ga oshishi kuzatilmoqda.

Yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, %




2018 yil yanvar-oktabr oylarida respublikalar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 67,8% dan ulushini), Taxiatoch (5,2%), Xo'jayli (3,7%), Amudaryo (3,4%), Mo'ynoq (3,1%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar-oktabr oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Shu bilan birga eng kam ulushi Taxtakopir (0,3 %), Shumanay (0,4 %) va Nukus (0,5 %), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Qorao'zak (2017 yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 164,5 % ga), Mo'ynoq (123,9 % ga), Amudaryo (119,8 % ga), Taxiatioch (114,3 % ga) va Qonliko'l (113,7 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Gulmurzaeva T.

Aloqa telefoni:

(0371) 230-82-09